

# XUSHXABAR

## FARG'ONADA «KITOB OLAMI»

*Kitob inson qalbini yoritadi, orzu-istaklarni uyg'otadi. Sohibqiron Amir Temur «Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir», deb bejiz aytmagan.*

Kuni kecha Farg'ona viloyati hokimligi, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi hamkorligida Farg'ona shahrida «Kitob olami» majmuasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda taniqli ijodkorlar, noshirlar va kitobxon o'quvchilar ishtirok etishdi. «Kitob olami»da respublikamiz nashriyotlarida chop etilgan turli mavzulardagi adabiyotlar o'rin olgan.

– Poytaxtda faoliyat yuritayotgan «Kitob olami» majmuasiga havas qilgandim, bugun esa viloyatimizda ham zamonaviy kitob do'konining ochilishi bizni nihoyatda quvontirdi, – deydi Beshariq tumanidagi 44-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Madamin Mahmudov.

Eng yaqin do'stimiz – kitob, doimiy hamrohimiz bo'lsin!



# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:22 (67083)  
2016-yil  
30-may

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN – 2010-6092

### 1-IYUN – XALQARO BOLALARNI HIMOYA QILISH KUNI

**Ahrorbek**

**Usmonjon**

**Yasminaxon**

**Firdavs**

**Diyoraxon**

**TINCHLIKNI QILSIN VATAN,  
YER YUZI BOLALARI!**

Do'st-birodar, yashasin  
Yer yuzi bolalari!  
Et-tirnoqqa o'xshasin,  
Yer yuzi bolalari!

Yer yuzini bog' etsin,  
Toshni gul-yaproq etsin.  
Ko'ngillarni chog' etsin,  
Yer yuzi bolalari!

Bir-biriga qo'l bersin,  
Yashnab turgan gul bersin.  
Ezgulikka yo'l bersin –  
Yer yuzi bolalari!

Oq tanmi yo qora tan,  
Bo'lsin bir jon-u bir tan.  
Tinchlikni qilsin Vatan,  
Yer yuzi bolalari!

Quyoshni tutib boshda,  
Kirsinlar yuz, ming yoshga.  
Nur taratsin Quyoshga –  
Yer yuzi bolalari!

Sh. MAXMADIYEV o'lgan suratlar

**Olqor DAMIN**


## O'ZBEKISTON – UMUMIY UYIMIZ!

**O'zbekistonimiz bag'rikeng, mehribon, saxovatpe-sha, mehmondo'st xalqi bilan alohida o'rin tutadi.**

Bizning hududimizda ham turli millat vakillari istiqomat qiladi. Ularning tili, dini boshqa, lekin maqsadi bir – shu yurt ravnaqi yo'lidagi xizmat qilish.

Maktabimizda biz bilan birga Alesya ismli qiz o'qiydi. U koreys millatiga mansub bo'lib, o'zbek tilida bema'lol gaplashadi. O'tkaziladigan turli ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etadi. Biz o'lochi, mehnatkash dugonamiz bilan faxrlanamiz.

Tinchlikning qadriga yetish hamda turli millat va elat vakillari bir oila farzandidek ahil, inoq yashayotgan Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning muqaddas burchimizdir.



**Dilshoda ABDUSALOMOVA, Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi 20-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi**

## BOLALIKNING QIYOSI YO'Q

**Yoshlik! Bu davr eng baxtli, eng zavqli onlarimizdir. Bolalik chog'imizda uning qadrini bilmaymiz, bunda bolalaracha o'yinqaroqligimiz pand beradi. Ulg'aygach, vaqt oqar daryodan o'tib ketganligini anglaymiz.**

Buvim doim aytardilar: «Bola ko'ngli pok va ozoda bo'ladi».

Ha, chindan ham bolalikni, yoshlikni hech narsaga qiyoslab bo'lmaydi.

Shunday ekan, bolalik davridan zargardek foydalanaylik, ezgu ishlari-miz bilan bezak beraylik, hayot deb atalmish buyuk ne'matdan bahramand bo'lish uchun munosib farzandlar bo'lib yetishaylik.

**Ozoda TO'LIBOYEVA,**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi, Amudaryo tumanidagi 71-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi**

## SIZ QALBIMNING QUYOSHI

**Onajon, har gal bag'ringizga otilsam, qaynoq mehringizni his etaman. Siz go'yo sehgarsiz, qalbimni bir zumda shodlik egallaydi.**

Qalbingiz xuddi quyosh nuridek qaynoq, ganchga o'yilgan naqshdek nafis atirgunning g'unchasiga qo'ngan shabnamdek beg'ubor, nilufar atridek musaffo.

Onajon! Siz bog'bondirsiz, men bir gulingiz, siz bir novdadirsiz, men bir bargingiz, siz qushdirsiz, men qanotingiz, siz bir bulutdirsiz men yomg'iringiz, siz bir ildiz bo'lsangiz, men gul-u mevangizdirman.

Onajonim! Chehrangizga qarab, peshonangizga tortilgan har bir chiziqni sanayman. Bu sizning ser-tashvish yo'llaringiz izlari. Sizni farzand sifatida sira ko'nglingizni og'ritmaslikka, yuzingiz quyosh kabi porlab turishiga harakat qilaman, onajon.

**Dilorom XOLMATOVA, Jizzax tumanidagi 23-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi**



# YOZDA HAYOT DARSIN OL

**Milliy matbuot markazida «2015–2016-o'quv yili yakunlari: amalga oshirilgan ishlar va istiqboldagi ustuvor vazifalar» mavzusida matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Tadbirda Xalq ta'limi vazirligi mutasaddi rahbarlari hamda tizimdagi muassasa va tashkilotlarning xodimlari ishtirok etdi. Unda yakunlangan o'quv yilidagi natijalar, erishilgan yutuqlar, kelgusida amalga oshiriladigan rejalar xususida so'z yuritildi.**

Respublikamizdagi barcha umumta'lim maktablarida 476616 nafar bitiruvchilar ishtirokida «Xayr maktab, saiom kollej!» tadbirlari «Zamonaviy bilimlar bilan zamonaviy kasb-hunarga ega bo'lamiz» shiori ostida ko'tarinki ruhda tashkil etildi.

9-sinf bitiruvchilari uchun «Men tanlagan kasbning kelajak hayotimdagi o'rni» mavzusida insholar tanlovi, «Kasblar festivali», «Ochiq eshiklar kuni»da o'zi yashab turgan hududdagi ishlab chiqarish korxonalarini, fermer xo'jaliklarini, ta'lim muassasalariga sayohat va ekskursiyalar tashkil etildi.

Bilimlar bellashuvi, fan olimpiadasi, turli sport musobaqalarida yuqori o'rinlarni egallab, ustozlari va ota-onalar ishonchini oqlagan o'quvchilar, shuningdek, «Eng ibratli o'quvchi», «Eng faol o'quvchi», «Ijodkor o'quvchi», «Yosh ixtirochi», «Maktabimiz faxrii», «Sport ustasi», «Kompyuter ustasi», «Eng orasta qiz» kabi nominatsiyalar bo'yicha iqtidorli va namunalari o'quvchilar alohida taqdirlandi.

Shuni mamnuniyat bilan aytish o'rinliki, birgina 2016-o'quv yilining o'zida umumta'lim maktablarining 60 nafar o'quvchisi turli xalqaro musiqa tanlovlari faxri o'rin-

larga sazovor bo'ldi. Bu kabi yutuqlarning son-sanog'i yo'q.

2016-yil Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 28 ta



bolalar va o'smirlar sport maktablarida qurilish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash hamda sport anjomlari bilan jihozlash belgilandi. Shuningdek, joriy yilda 217 ta umumta'lim maktablarida sport zallari quriladi. Bu esa bolajonlarga sport bilan muntazam shug'ullanish imkonini beradi.

O'quvchilarning yozgi ta'limi mazmunli va maroqli o'tkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan maxsus konsepsiya ishlab chiqildi. Unga ko'ra 213 ta statsionar, 851 ta kunduzgi oromgohlarda bolajonlar maroqli dam olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratiladi. Oromgohlarga o'z ishini ustalar bo'lgan tajribali ustoz va murabbiylar jalb etiladi.

Umumta'lim maktablarida o'quv jarayoni tugagani bilan yoz davomida ta'lim, tarbiya ishlari yanada qizg'in davom etadi, deya ta'kidlandi matbuot anjumani.



N. SULTONOV olgan suratlari

## «Do'stlik» qishlog'i yoshlariga AJOYIB TUHFA

**Qashqadaryo viloyati, Nishon tumanidagi «Oydin» mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan madaniyat saroyi qayta rekonstruksiya qilinib, zamonaviy ko'rinish kasb etdi.**

Madaniyat aholi dam olish markazi deb nom olgan ushbu inshoot «Do'stlik» qishlog'i yoshlariga yozgi ta'lim oldidan ajoyib tuhfa bo'ldi.

Markazda doira, xonandalik, raqs, xalq cholg'u asboblari ijrochiligi va tikuvchilik kabi amaliy va san'at to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, bunda tumanning mohir pedagog-murabbiylari mashg'ulotlar olib bormoqda. 18-umumta'lim maktabi o'quvchilaridan Shohrux Mamashoyev, Azizbek Choriyev va boshqa iste'dod egalari Nuriddin Murtazoyev, Odil Boyqulov, Sirojiddin

Mamashoyevlardek badiiy to'garak rahbarlaridan san'at sirlarini o'rganishmoqda. Markaz ish boshlaganiga hali ko'p bo'lmasa-da, ustoz Dilorom Jo'rayeva-ning shogirdlari bichish-tikishga ancha uquvi kelib qolgan.

Ayni kunlarda tashkil etilishi mo'ljallangan yangi folklor dastasiga o'quvchilarni saralash sinovlari bormoqda. Dasta 1-iyun – Xalqaro bolalar kuniga bag'ishlangan konsert dasturiga tayyorgarlik ko'rmoqda.

**Xurshida SULAYMONOVA**

# «ONAJONIM TABIAT»

## insholar va rasmlar ko'rik-tanlovi g'oliblari aniqlandi

Ularning orasidan munosiblarini tanlab olgach, O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasi, O'zbekiston ekologik harakati hamda «Tong yulduzi» gazetasi tahririyati xodimlaridan iborat hakamlar hay'ati tomonidan quyidagi o'quvchilar g'olib deb topildi:

**Insholar yo'nalishi bo'yicha g'oliblar:**

**1-o'rin:** Shahnoza Komilova, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 3-IDUMning 6-sinf o'quvchisi, «Yurtim jamoli» nomli inshosi hamda rasmi uchun.

**2-o'rin:** Kamola Arabova, Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi 25-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi, «Onajonim tabiat» inshosi va «Onajonim tabiat – jonajonim tabiat» rasmi uchun.

**3-o'rin:** Gulasal Baxtiyorova, Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 40-umumta'lim maktabining 3-«D» sinf o'quvchisi, «Ona tabiat» inshosi uchun.

### Rag'batlantiruvchi mukofotlar:

Farida Jumaboyeva, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Amudaryo tumanidagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi, «Tabiat va biz» inshosi uchun.

Ardasher Mehmonov, Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumanidagi 31-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi, «Ozod yurtning tabiati obod» inshosi uchun.

Madina Qurbonova, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabining 7-«D» sinf o'quvchisi, «Tabiiy boyliklarni asraylik» inshosi uchun.

**Aziz o'quvchilar!**  
Xabaringiz bor, joriy yil gazetamiz sahifalarida «Onajonim tabiat» an'anaviy insholar va rasmlar ko'rik-tanlovi e'lon qilgan edik. O'tgan oylar mobaynida tanlov uchun sizlardan ko'plab maktublar oldik.

### Rasmlar yo'nalishi bo'yicha g'oliblar:

**1-o'rin:** Xumora Omonova, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 97-umumta'lim maktabining 8-«D» sinf o'quvchisi.

**2-o'rin:** Dilshoda Mamadiyorova, Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi 26-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi.

**3-o'rin:** Komila Yo'ldosheva, Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 20-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi.

### «Eng yosh musavvir» nominatsiyasi bo'yicha:

Sarvinoz Nurmatova, Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi.

G'olib va sovrindor o'quvchilar joriy yilning 3-iyun kuni soat 10.00 da poytaxtimizning G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida taqdirlanadilar.

Telefonimiz: 244-63-08



## Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English! Lesson 89

**Summer came**



Dear children! Your favorite summer came. It is very nice, merry. You may swim and you have long vacation whole summer.

But you should be careful: Don't drink cold water or eat many ice creams!

Don't swim in prohibited ponds or canals. You should be healthy, clever and tidy.

## «ICE CREAM» GAME

This game for two people, you may play with your friend, sister or brother. Find an exact word to each definition and win the ice cream.

Dark glasses that you wear to protect your eyes from bright light from the sun - ...

A device for protection against the rain, consisting of a stick with a folding frame covered in material at one end and usually a handle at the other, or a similar, often larger, device used for protection against the sun - ...

A covering for the head that is not part of a piece of clothing - ...

An object made of folded paper or other material that you wave with your hand in order to move the air around - ...

The liquid that comes from fruit or vegetables - ...

A simple piece of clothing, usually with short sleeves and no collar, that covers the top part of the body - ...

Prepared by Dinora SHAKIROVA

## True or false?

Are these statements true or false in your experience?



- Train are more reliable than buses.
- Train fares are more expensive than bus.
- Train journey are more interesting than bus journeys.
- Railway stations are nicer places than bus stations.
- You get to the place you are going faster by taxi than bus.

**Kumush TURG'UNOVA,**  
the pupil of school №54 in Urta-chirchik district, Tashkent region

## Oybekmisan yo oy bolam?!

**Xal-qimiz, bolali uyni bozor, deyishadi. Haqiqatan ham bu so'zning zamirida ancha ma'no bor.**



H. HAMIDULLAYEV olgan surat

Bolalar olamining o'ziga xos beqiyos qirralari har qanday kishini hayratga soladi. Ular borliqni o'zgacha his qilishadi. Ba'zan o'zlarining behisob savollari bilan biz kattalarni ham lol qoldiradi.

Nabiram Oybek ilk qadam tashlashni o'rgangan boisi, dilidagi zavqini yashirolmay nuqul qo'limdan tutib hovliga sudraydi: – Bobo, to'y-to'y, – deydi. Uning shirin so'zlaridan quvna ketaman.

*Ilk qadaming qutlug' bo'lsin, aziz o'g'lon, Qutlar seni ona yurtning O'zbekiston!*

Aslida toy-toy deyilishi kerak, nabiramning so'z ohangidan to'y degan ma'noni anglayman. Uning mitti qo'lchalaridan tutib tabiat bag'rida aylantirishga oshiqaman. U shoshqaloqlik qilib qadamchalarini yanada kattaroq tashlashga harakat qiladi. Orzular og'ushida ildam odimlayotgan farzandlarimizning obod dunyosi bundan-da obod bo'lsin. Chindan ham

bugun emin-erkin zamonda voyaga yetayotgan farzandlarimiz o'z bilimlari bilan dunyoning katta maydonlarida bo'y ko'rsatishmoqda. «Sog'lom ona va bola yili» munosabati bilan onalarimiz hamda bolalarimiz uchun davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar zamirida kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarimizning ong-u shuurini yanada yuksaltirish ko'zda tutilgan. Ishdan horib kelgan chog'da o'zining birgina beg'ubor kulgusi bilan ko'nglimizni tog'dek ko'targuvchi murg'ak qalb egalarining har bir kuni bayram bo'lishini tilaymiz. Bugun yana nabiram Oybekni yetaklab ketayapman. Uning quvnoq xatti-harakatlaridan zavqlanaman...

Toydek bo'lib yurgin bolam, toy-toy bolam, toy-toy bolam, Boshingda nur sochgan quyosh qalbingda topsin joy, bolam.

Kulsang qiqirab qoldi soy, bog'larga baxsh aylab chiroq, Dunyodagi eng katta boy, hozir o'zingsan, hoy bolam.

Yo'l izlasang gulzorga boq, ketmas quvonch bizdan yiroq, Tog'larda ko'z ochgan buloq, oqmaydi hech vaqt loy, bolam.

Toy-toy desam, to'y-to'y deding, yurgan yo'limga qo'y deding, Dunyoy qo'shiq va kuy deding, Oybekmisan yo oy bolam?!

Qalbmida cheksiz iftixor, boshimda ming yillik chinor, Tuprog'i zar sochgan diyor, oh, buncha Hotamtoy bolam!

Darsxonadir asli hayot, nabiralalar bizga qanot, Borliqni sev mendan ziyod, monandi oqqan soy bolam.

Mehring etib ko'nglimga jo, tinchlik so'rab qildim duo, Topilmagay olam aro, Axtamqulidek boy bolam.

**AXTAMQULI**

«ADABIYOTGA E'TIBOR – MA'NAVIYATGA, KELAJAKKA E'TIBOR» SHIORI OSTIDAGI

**IV RESPUBLIKA KITOB BAYRAMI**

Ma'naviyat, ma'rifatni targ'ib qilish har bir ziyolining vijdon ishidir.  
**Islom KARIMOV**



Erkin Komilov: «Tong yulduzi» gazetasini qo'lga olib, bolalik xotiralaringizni jonlanganday bo'ldi.

Poytaxtimizning G'afur G'ulom nomidagi Madaniyat va istirohat bog'ida yangragan karnay-surnay sadolari Respublika «Kitob bayrami» boshlanganligidan darak berdi. An'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan mazkur tadbir O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi va bir qator tegishli davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda viloyat markazlarida o'tkazildi.

Bu yilgi ma'naviy tadbir adabiyot orqali xalq ma'naviyatini yuksaltirish, milliy qadriyatlarini asrab-avaylash, yosh avlodning ong-u shuuriga mustaqil-

lik g'oyalarini singdirish va ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ma'nan barkamol qilib voyaga yetkazishda kitobning o'rni, ahamiyatiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishni maqsad qilib o'tkazildi. Shuningdek, aholining, ayniqsa, yoshlarning milliy va jahon adabiyoti durdonalariga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda oilaviy kitob o'qish an'alarini targ'ib qilish, yozuvchi va kitobxon o'rtasidagi muloqotni yanada jonlantirish kabi ezgu maqsadlarni amalga oshirishdan iborat bo'ldi.

Respublika «Kitob bayrami»da 120 ga yaqin nashriyot va matbaa korxonalari o'z mahsulotlari bilan ishtirok etdi. Mehmonlar nashriyot-matbaa ijodiy uylari hamda sohada faoliyat yuritayotgan yetakchi nashriyotlar tomonidan tashkil etilgan ko'rgazma stendlarini to-

mosha qildilar. Shu bilan birga, bog'ning turli joylariga o'rnatilgan telemonitorlarda nashriyotlar faoliyatini aks ettiruvchi hamda kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilishga bag'ishlangan videolavhalar bilan tanishdilar.

Nashriyotlar tomonidan bayram ishtirokchilariga oilaviy kitob o'qish an'alarini targ'ib qilish maqsadida «Bolalarda kitob o'qishga mehr uyg'otishda ota-onalarga maslahatlar» nomli flaylar taqdim etildi hamda «Kitob o'qishni yoqtirasizmi?» mavzusida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazildi. Bayram doirasida o'quvchi bilan adiblarning bevosita muloqotlariga katta e'tibor qaratildi. Bu tadbirga taklif etilgan taniqli yozuvchi va shoirlar bilan ijodiy uchrashuvlar o'tkazildi.

«Kitob bayrami»da mushoiralar, Zul-

fiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlarining ijodiy uchrashuvlari, «Kitobdan yaxshi do'st bo'lmas», «Odamiylik kitobga bo'lgan ehtiromdan boshlanadi», «Kitobga mehr qo'ysangiz, u sizni, albatta, munosib taqdirlaydi», «Mening birinchi kitobim», «Kitob – eng yaxshi sovg'a» mavzularida intellektual viktorinalar tashkil etilib, g'oliblarga kitoblar taqdim etildi. Shuningdek, kitob grafikasi va miniatyura janrida ijod qilayotgan yosh rassomlarning ijodiy ko'rgazmalari ham uyushtirildi.



– Bayramga bobom bilan keldik, – deydi opa-singil Allomaxon va Azizaxon Fayzullayevalar. – Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 178-umumta'lim maktabida o'qiydigan Badiiy adabiyot mutolaasini juda yoqtiramiz. Yozguta'tilda o'qish uchun ko'plab qiziqarli kitoblarni sotib oldik. Sevimli yozuvchimiz Muhammad Ali bilan bo'lgan uchrashuv va muloqot esa hayotimizdagi unutilmas voqea bo'lib qoladi.



– Mutolaa hayotingiz mazmuniga aylansin, – deydi O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid.



– «Tong yulduzi» zo'r gazeta ekan!



Rastalardagi bir-biridan chiroyli kitoblarni astagina olib mehr bilan varaqlayotgan qizaloq bilan bolakay e'tiborimizni tortdi. Ularni hozirgina xarid qilgan kitoblarini avaylaganicha bag'riga bosishini kuzatish juda maroqli edi. Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 238-umumta'lim maktabining 5-sinfini tamomlagan Shohrux Mirzohidov hamda Chilonzor tumanidagi 178-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi Rafina Rahimberdiyeva to'rt yildan buyon Respublika «Kitob bayrami»ga tashrif buyurishar ekan.



– Kitob – hayot yo'llarimizni yorituvchi yo'lchi yulduz, bolam, – deydi gazetamizning «Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!» ruknining eng faol mualliflaridan biri Foziljon Oripov.



Kitob – eng yaqin do'stimiz!



Angrenlik yosh ijodkorlar ishtirok etgan davra qizg'in bahslarga boy bo'ladi.



Kitobxonlar davrasi.



– Qaysi birini olsak ekan-a?!



– Ma'naviyat-ma'rifatni tarannum etuvchi bunday bayramlar kekxa-yu yoshni birdek quvontiradi, – deydi O'zbekiston Jurnalistlari va Yozuvchilar uyushmalari a'zosi, shoir va adib Iskandar Rahmon.



– Qizlar, sevimli gazetamizning yangi soni juda chiroyli chiqibdi-al!



– Mana bu kitobni sotib olmoqchi edim, narxi ham arzon ekan.

Qo'shsahifani o'z muxbirlarimiz tayyorlashdi.

BUVIJONIM

Mehringiz menga bo'lak, Sizni ardoqlaymiz biz. Siz bizga juda kerak, Sizni yaxshi ko'ramiz, Buvijonim, buvijon.



Ertaklaringiz tinglab, Juda mazza qilaman. Shuning uchun men sizni, Doim yaxshi ko'raman, Buvijonim, buvijon.

To'xtajon QURAZOVA, Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 40-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi

OSMON CHALAR DO'MBIRA

Yomg'ir chaladi kuy tor, Unga jo'r bo'lar bahor. Chaqiradi shamolin, To'kib daraxtlar gulin. Yerga soladi gilam, Sayrashadi qushlar ham. Yomg'ir ustida quyosh, Kamalakka bo'lar bosh. Osmon moviy rang ko'ldir, Bulut misli oqqushdir. Chaqmoq chaqqan vaqtda, Osmon chalar do'mbira. Chaqmoq chaqqanda atrof, Yorug'lashib ketadi. Yomg'ir sho'x tomchilari, Maysani mast etadi.



Surayyo ZOKIROVA, Andijon viloyati, Xo'jaobod shahridagi 24-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

IZLANUVCHAN SHAHZODA

Gazetamizning jamoatchi muxbiri, poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 133-umumta'lim maktabi o'quvchisi Shahzoda Sayfullayeva «Kamalak» bolalar tashkilotining XV anjumani-da «Huquqiy savodxonlik» yo'nalishi bo'yicha g'olib bo'lganligi bizni ham quvontirdi. Shuningdek, u umumta'lim maktablari o'rtasida o'tkazilgan «Yil sardori» tanlovining Toshkent shahar bosqichida 2-o'ringa munosib topildi va diplom bilan taqdirlandi.



– Anjumanda Harakat qoshidagi «Kamalak» bolalar tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilindi, kelgusidagi ustuvor vazifalar belgilab olindi. Yurtimiz yoshlarining ilg'or ish tajribalari o'rganilib, ular bilan do'stlik aloqalarini o'rnatib, Vatan ravnaqi yo'lida birlashib harakat qilishimiz zarurligi yana bir bor ta'kidlandi, – deydi biz bilan suhbatda Shahzoda.

Shu o'rinda aytish joizki, Shahzoda o'z tengdoshlari qatori «Kamolot» YOIH tomonidan o'tkazilayotgan barcha tadbirlarda o'quvchi-yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga, Respublikamizda qabul qilinayotgan Qonunlar mohiyatini teran anglashda oldingi saflarda bo'lishga intilyapti. Olmazor tuman sardorlar Kengashi tomonidan o'tkazilgan «Yoshlar chekishga qarshi», «Kamolot» tur velomarafoni, «Kamolot» shaxmat taxtasi, «Biz sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz», «Men terrorizmga qarshiman» kabi aksiya va loyihalarda yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga, ularni turli mafkuraviy xurujlardan himoyalashga, mustaqilligimiz va tinchligimizga raxna soluvchi harakatlardan ogoh bo'lishga qaratilganligi ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

Nodira NAZAROVA

Yaqinda poytaxtimizda «QUDRATLI YURTNING SOG'LOM FARZANDLARI»

deb nomlangan bolalar xayriya san'at bayrami bo'lib o'tdi.

Mazkur bayram tadbirida Chilonzor tumanidagi umumta'lim maktablari o'quvchilari hamda kam ta'minlangan oilalar hamda imkoniyati cheklangan farzandlar ishtirok etishdi. O'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan turli sport bellashuvlari, viktorina savol-javob o'yinlari, asfaltga rasm chizish musobaqalari, ayniqsa, san'atsevar yoshlar jirosidagi rang-barang bayram konserti yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.



Sporting armrestling (qo'l bilan kuch sinashish) turi bo'yicha o'tkazilgan bellashuvda jahon chempioni Jasur Aliakbarov hakamlik qildi. 1-o'rin Behruz Po'latov, 2-o'rin Rahmatjon Anvarov, 3-o'rin esa Behruz Xushnoro'vga nasib etdi. G'oliblar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

– Men Shahnozabonu Arslonova bo'laman, – deya o'zini tanishtirdi bayram qatnashchilaridan biri. – 195-umumta'lim maktabining 7-«A» sinfida o'qiyman. Bugungi tadbirga ukalarim bilan birga keldik. Ortiqjon 6-«B» sinfida o'qiydi. Arslonbek esa «Semurg» nomli 350-MTM tarbiyalanuvchisi. Bayram nihoyatda qiziqarli tarzda, jonli o'tdi. Bu tadbirga kelganimizdan juda xursandmiz.

Bayramda ishtirok etgan ellik nafardan ziyod Chilonzor tumanidagi kam ta'minlangan oilalar hamda imkoniyati cheklangan farzandlarga homiylik tomonidan esdalik sovg'alari taqdim etildi.



Suratdagi bu jamalakschoq qizaloqlar – Farangiz Abdumalikova va Dilso'z Mahmudova Yashnobod tumanidagi 151-umumta'lim maktabining 1-sinfini tugatishmoqda. Ular yosh raqqosalar to'garagi a'zolari ham ekan.

Dilorom HOTAMOVA

chi. Maydonchaga keta turib bobosi unga do'kondan shokolad olib berdi. Shosha-pisha shirinlik qog'ozini ochayotgan nabirasiga shokoladning ham vatani bor, dedi.

– Kel, yaxshisi, sen uni yeb bo'lguningcha men shokolad haqidagi qiziq gaplardan gapirib beraman.

– Shokolad aslida kakao degan mitti-mitti donachalardan tayyorlanadi. Uni uzoq Amerikada ancha qillar oldin yashagan mayya, atsek qabilalari kashf qilishgan. Hatto o'sha paytlarda bu o'simlik pul vazifasini ham bajargan.

O'ttiz besh yil o'quvchilarga tarixdan dars berib kelgan bobosiga nabira muallim kutgan savolni berdi:

- Iye, u odamlarning puli bo'lmaganmi?
- Bo'lgan. Faqat bir-biriga mana shu kakao donachalarini pul sifatida berishgan. Shunday qilib, shokolad oldinlari seining qo'lingdagidek qattiq emas, suyuq, mazali emas, aksincha, juda ham achchiq bo'lgan. Keyinchalik u Yevropaga kirib kelgach, turli moddalar qo'shilishi natijasida shiringina yegu-likka aylangan. Buni fransuzlarning XIX asrda

yashagan Jak Neaus degan tadbirkor bobokaloni amalga oshirgan. Shu sababli, shokoladni senga o'xshash yevropalik bolakaylar ham juda yaxshi ko'rishadi. Hatto unga atab London shahrida «Shokoladlar uyi» qad rostlagan.

Boburjon to'satdan xayoliga kelgan fikrdan quvonib ketdi:

– Bobojon, menga yana shokolad olib bering. Uni yemayman. Uyga olib borib, men ham shokoladimga uycha qurib beraman. Xo'pmi, bobojon?!

– Xo'p bo'ladi-da, bolam.

Bobo va nabira shu tariqa bolalar maydonchasiga yetib kelishdi. Boburjon tengqurlari bilan mazza qilib o'ynadi. Bobo esa yangi o'rnatilgan o'rindiqda o'tirib, ularni jilmaygan-cha kuzatib turdi. Uyga qaytishda ular yana do'konga kirishdi. Boburjonning shokoladni qo'lga ola turib aytgan gapiga sotuvchilar ham miriqib kulishdi:

– Bobojon, o'zingizgayam shokolad oling. Siz ham menga o'xshab unga uy qurib beradingiz.

Bobo ham nabirasining gapidan shodlanganligini yashirolmay «Axir mening shokoladim o'zingsan-ku, toycho'g'im», deya nabirasining burnini chimchilab qo'ydi.

Farhod ESHMO'MINOV

YO'LIBBEK chizgan rasm



SHOKOLADNING UYI

(Hikoya)

Boburjonga endi mazza. Bobosi nafaqaga chiqdi-yu, nabirasining doimiy do'stiga aylandi-qoldi.

Boburjon bugun ertalabdan bobosini ko'chaga tortqilay boshladi. Mahallasida yangi qurib bitkazilgan bolalar maydonchasini ko'rsatmoq-

Akrobatika – respublika-mizda keng tarqalgan va rivojlanayotgan sport turlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda Gimnastika federatsiyasi badiiy va sport gimnastikasi, akrobatika va trampolin sport turlarini o'zida mujassamlashtirgan.



## MURABBIYLAR XIZMATI CHEKSIZ



Ushbu turlar ichida akrobatika murakkab mashqlari va jozibali chiqishlari bilan ajralib turadi. Ayni kunda federatsiyada akrobatika bo'yicha 100 ga yaqin o'quvchi sportchilar shug'ullanadi. Ular orasida Osiyo chempionlari va O'zbekiston terma jamoasi a'zolari ham bor.

Joriy yilning 10–13-may kunlari poytax-

timizdagi gimnastika sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabida mamlakat chempionati bo'lib o'tdi. 13 va undan katta yoshlilar o'rtasida kechgan mazkur musobaqada Farg'ona, Andijon, Samarqand, Jizzax va Toshkent shahridan 80 ga yaqin sportchilar bellashdi.

Qizlar o'rtasidagi ikki juftlik bahslarda poytaxtlik Nafosat Muhiddinova va Madina Rixsiyeva 1-o'rinni egalladi. Ushbu juftlik bahslarining 2- va 3-o'rinlari ham toshkentlik sportchi-qizlarga nasib etdi.

Yigitlar o'rtasidagi ikki juftlik bahslarida Toshkent shahridan Miraziz Azizov va Ergash Jo'rayev 1-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, qolgan o'rinlar ham poytaxtlik akrobatlarga nasib etdi. G'oliblar orasida yunusobodlik maktab o'quvchilari Temur Ibragimov va Nikolay Yevdakimovlarning borligi quvonarli.

Musobaqaning mazmunli o'tishida Ahror Qodirov hamda Damir Shaipov singari murabbiylarining xizmati katta bo'ldi.

Shukrulla G'ULOM

## OLIMJON QISHDI

Ayniqsa, bugun Jo'rabek Karimov, Nigina Abduraimova, Vlada Yekshibarova kabi umidli raketka ustalarini nafaqat yurtimizda, balki dunyoda ham juda yaxshi bili-

Keyingi yillarda yosh tennischi o'g'il-qizlarimizning respublika va nufuzli xalqaro musobaqalarda qayd etayotgan ajoyib natijalari barcha yurtdoshlarimizni xushnud etmoqda.



shadi. Kuni kecha Samarqand shahrida o'tkazilgan Osiyo tennis federatsiyasi – ATF musobaqalar taqvimidan o'rin olgan chempionatda ham ana shunday iqtidorli sportchilarimiz yana bir bor o'z mahoratlari bilan barchani hayratda qoldirdi.

## BOKSCHILARIMIZ SHOHSUPADA

Rossiyaning Surgut shahrida boks bo'yicha nufuzli xalqaro musobaqa o'tkazildi. Quvonarlisi, o'zbek maktabi tarbiyalanuvchilari ham mazkur turnirda munosib ishtirok etib, yakunda o'rinni egalladi.

Jumladan, 91 kilogramm vazn toifasida ringga ko'tarilgan hamyurtimiz Sardor Normuhammedov yarim finalda rossiyalik Omar Shabanovni nokautga uchratib, muxlislar e'tirofiga sazovor bo'ldi. Finalda esa u yana bir mezbonlar vakili Denis Xamatovni ham taslim etib, musobaqa g'olibligini qo'lga kiritdi.

Shuningdek, Odil Arslonov, Muslimbek Jo'rayev kumush, Anvar Turpov esa bronza medal bilan taqdirlandi.



Nufuzli musobaqaning hal qiluvchi bellashuvi ham o'zining tomoshabopligi bilan muxlislarga bir olam quvonch hadya etdi. Ayniqsa, Olimjonning chiroyli va betakror harakatlari ko'pchilikning olqishiga sazovor bo'ldi. Yakunda raqibini 6:3, 6:1 hisobi bilan taslim etgan Olimjon turnir g'olibligini qo'lga kiritdi.

Shuningdek, qiz bolalar o'rtasida bellashuvlarda ham g'olib va sovrindorlar aniqlandi. Unga ko'ra Sitora Normurodova barcha raqibalarini ortda qoldirib, shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy egalladi.

S. TURSINOV

## «YASHIL CHIROQ – 2016»

## 8-MAKTAB O'QUVCHILARI GRAN-PRI SOHIBI

Respublikamizda bolalar o'rtasida yo'l-transport qoidalarini o'rgatib borish maqsadida tegishli tashkilotlar tomonidan bir qator tadbirlar o'tkazilmoqda.

Ana shunday tadbirlardan biri poytaxtimizda bo'lib o'tdi. «Yashil chiroq» musobaqalarining shahar bosqichida g'olib bo'lgan o'n bitta tuman jamoalari o'zaro bellashishdi.

Musobaqada jamoalarning safda yurish tayyorgarligi, yo'l harakati qoidalariga oid bilimlari sinovdan o'tkazildi. Yosh velosipedchilar musobaqasida esa ishtirokchilardan sakkiz shakldagi chiziq oraliqida harakatlanish, to'siqdan aylanib o'tish talab qilindi.

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish musobaqasida jamoalardan ikki o'quvchi ko'chada tasodifan baxtsiz hodisa sodir bo'lganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha qilinadigan harakatni amaliy bajarib, uni sharhlab berishdi.

Shuningdek, o'quvchilar texnika ijodiyoti bo'yicha ham o'zaro bellashdilar. Unda bolalar ixtiro qilgan transport vositalarini radio to'lqini yordamida

chorrahalaridan qoidali boshqarish bo'yicha musobaqalashishdi.

Shundan so'ng, o'quvchilar yo'l harakati qoidalari bo'yicha qanchalik bilimiga ega ekanliklari yuzasidan test sinovlaridan o'tdilar.

Yakunda Mirzo Ulug'bek tumanidagi 120-, Chilonzor tumanidagi 178-umumta'lim maktabi o'quvchilari 1-o'ringa munosib deb topildi. Shuningdek, Mirobod tumanidagi 218-, Uchtepa tumanidagi 107-umumta'lim maktabi yosh yo'l nazoratchilari 2-, Shayxontohur tumanidagi 39-, Olmazor tumanidagi 11-umumta'lim maktabi o'quvchilariga esa 3-o'rin nasib etdi.

Musobaqada eng ko'p ball to'plab oliy o'rin – Gran-priga sazovor bo'lgan Sergeli tumanidagi 8-umumta'lim maktabining yosh yo'l nazoratchilari shu yil Navoiy viloyatida bo'lib o'tadigan «Yashil chiroq – 2016» respublika ko'rik-tanlovida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi.

Tohir MULLABOYEV,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist



## TA'TIL MAROQLI O'TSIN, QIZALOQ!

Suratdagi bu qizaloq Navoiy shahridagi 4-IDUMning 2-«B» sinf o'quvchisi Go'zal Fayzullayeva bo'ladi.



U ushbu o'quv yilini a'lo baholarga tamomladi. Hali yosh bo'lishiga qaramay, Go'zal ingliz tilida bema'lol so'zlasha oladi. Chunki u maktabga ilk qadam qo'ygandan boshlab, darsdan bo'sh vaqtlarida rasm va ingliz tili fanidan qo'shimcha mashg'ulotlarga muntazam qatnashib keladi. Uning izlanuvchanligidan ustози Olesya Golubeva ham mamnun.

Barcha darslarini vaqtida o'zlashtiradigan o'quvchi san'at va sport to'garaklarini ham kanda qilmaydi. Anchadan beri raqs va suzish sportiga qatnashib kelayotgan Go'zal yozgi ta'tilda to'garak mashg'ulotlar soatini ko'paytirmoqchi. Shuningdek, izlanuvchan tengdoshingiz yozgi ta'tilda mutolaa qilish uchun bolalar adabiyotiga oid badiiy asarlar ro'yxatini tuzib qo'ydi. Ular ichida Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq debni minib» asari ham bor.

Nozima QUDRAT qizi

## DUNYO KUTUBXONALARI

**YER OSTI ZIYOSI**  
Nyu-York shahrining «50th street» metro bekatida yo'lovchilar uchun kutubxona ochilgan. Kitobxonlar ushbu yer osti kutubxonasidan ishga yoki uyga ketayotganda o'zlariga yoqadigan kitoblarni topishi mumkin.



**KECHA VA KUNDUZ**  
Oddiy telefon do'konida joylashgan mini-kutubxonadan Angliyaning Somerest grafligi aholisi 24 soat mobaynida foydalanishi mumkin. Do'konda CD, DVD diskleri va 100 dan ortiq kitoblar mavjud. Hozirgi kunda Angliyada 350 dan ortiq shu kabi kitob do'konlari mavjud. Ularda qishloqlarda istiqomat qiluvchi rassomlarning ko'rgazmasi ham o'tkazib turiladi.

**KAMALAKDEK SERJILO**  
Singaporda joylashgan Bishan kutubxonasining devorlari rangli oynalar bilan bezatilgan bo'lib, bu kitobxonlarga yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi. Tashqi tarafdin ham, ichkaridan ham juda chiroyli ko'rindigan bu kutubxonada muhokama uchun maxsus xona ham mavjud.


**BILIMLAR QUYOSHI**  
Misrda joylashgan qadimiy Aleksandriya shahrining mashhur kutubxonasi o'rniga qurilgan yetti qavatli Iskandar kutubxonasining binosi quyosh diskini eslatadi. U O'rta-yer dengizi ortidan ko'tarilayotgan quyoshning aynan ro'parasida joylashgan.



Umida MAMAJONOVA, Zarnigor MUSAYEV

## BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR! TOPSHIRIQLI AYLANMA KROSSVORD

1. O'zbek xalq dostoni. 2. San'atkor Tohir Sodiqov guruhi. 3. «Suyunchi» filmidagi buvi. 4. Dam olish maskani. 5. «Shum bola»ning ismi. 6. Ekranlashtirilgan o'zbek xalq dostoni. 7. Bolalar tashkiloti. 8. Dars beruvchi, ustoz. 9. Sevimli shirinlik. 10. Qizlar ismi. Krossvordni hal etgandan so'ng shakl atrofidagi raqamlarni javoblar yozilgan raqamli xonalardagi harflar bilan almashtirish orqali topshiriqlari hal eting. Shunda ulardan xalq maqollaridan biri ayon bo'ladi.



Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

## Tarix fanidan test

- Kalendarning vatani qayer?**  
A) Misr;  
B) Yunoniston;  
C) Rim;  
D) Fransiya.
- Dunyoning birinchi xaritasini kim tuzgan?**  
A) Beruniy;  
B) Xristofor Kolumb;  
C) Aristotel;  
D) Erosfen.
- Birinchi alifboni kimlar yaratgan?**  
A) Finikiyaliklar;  
B) Misrlilar;  
C) So'g'diylar;  
D) Yunonlar.



ABDEFJ  
HIJKLM  
NOPQRS  
TVXYZ

Xosiyat HASANOVA tayyorladi

## «Ashaddiy muxlis»

Futbol muxlisini biri ikkinchisiga aytayпти:  
– Futbol chempionati vaqtida doim men muxlislik qilgan jamoa g'alaba qozonadi. Yana men muxlislik qilgan jamoa, albatta, chempion bo'ladi.  
Bu gaplarni eshitib, suhbatdoshi hayron bo'ldi.  
– Axir qanaqasiga? Bo'lishi mumkin emasku...  
– deb qiziqib so'radi.  
Ashaddiy muxlis javob berdi.  
– Chunki men doim g'alaba qozongan jamoaga muxlislik qilaman-da...  
Muzaffar AHMEDOV

